ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ.....	968
Ишонкулова Феруза Асатовна	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION HUQUQIY SIYOSATIDA GLOBAL REYTINGLARNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	974
Gavhar Bekmurodova Adham qizi	
XALQARO MOLIYA BOZORIDA KREDIT RISKINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	981
Ochilova Xusniya Olim qizi, Yuldasheva Umida Asanaliyevna	
JAHONDA BRONLASH TIZIMLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARINING EVOLYUTSIYASI.....	987
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
MILLIY IQTISODIYOT INNOVATSION SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA JAHON TAJRIBALARI.....	994
Samadqulov Muhammadjon Islom o'g'li	
HUDUDİY RIVOJLANISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING AHOLI DAROMADLAR DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	998
Olimjon Fattoyev G'ayrat o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ZAMONAVIY SHAROITLARDI RAQOBATBARDOSHLIGI: NAZARIY JIHATLARI VA AMALIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI	1002
Adizov Bobir Baxtiyorovich	
ZAMONAVIY SHAROITDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RISKLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1005
Sirojiddinov Kamoliddin Ikromiddinovich, Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich	
NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH KLASHTERINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI VA ISTIQBOLLI MANBALARI.....	1011
Abduraxmanov Muxtorali Abduvoxidovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	1016
Авезова Шахноза Махмуджановна	
MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR KO'RSATADIGAN OMILLAR.....	1022
Obilov Mirkomil Rashidovich	



“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNING MADANIY IDENTIKLIKKA TA’SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL”	1028
Alijonova Nargiza Rashidjon qizi	
STATISTICAL ANALYSIS OF CREDIT INTEREST RATES.....	1034
Abdullayev Shakhobiddin Shamsiddinovich	
QISHLOQ XO‘JALIGIDA LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH METODLARI VA SAMARALI TA‘MINOT ZANJIRI MODEL.....	1037
Olimova Bahora Shuxratovna	
INNOVASION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHINING NAZARIY JIHATLARI.....	1042
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMIL SIFATIDA FOIZ SIYOSATI VA UNING AMALIY JIHATLARI.....	1047
Axmedova Dilafro‘z Elshodovna	
B2BDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH BO‘YICHA XORIJIY Tajribalar.....	1053
Abdubotirova Madinaxon	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИННОВАЦИОННО - ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ	1059
Баходирова Хилола Баходировна	
RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANISH.....	1063
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Abdurazakova Diyora	
ENERGIYA XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY SAMARASI	1070
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF REMOTE BANKING SERVICES IN THE CONTEXT OF BANKING TRANSFORMATION	1075
Jabborov Bahriddin Rashidovich	
MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY-XO‘JALIK FAOLIYATINI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH TARTIBI.....	1079
G‘ofurov Iskandar Abduraxmonovich	
BANKLARNING INVESTITSIYA RISKLARI VA ULARNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	1084
Yuldashev Erkin Xusanovich	
MA’LUMOTLAR BAZASINING RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAGI AHAMIYATI.....	1090
Maxamadiyev M. M.	
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ: АНАЛИЗ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ АКИБ «ИПОТЕКА-БАНК» ПОСЛЕ ВХОЖДЕНИЯ В ОТП GROUP	1095
Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	



JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLİYAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich

Renessans talim universiteti

“Reja moliya bo‘limi” bosh hisobchi

abdurauf954@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport muassasalarida moliyaviy munosabatlarning hozirgi holati, ularni takomillashtirish zaruriyati hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etishning ahamiyati chuqur yoritilgan. Tadqiqotda sport muassasalarining asosiy moliyaviy manbalari — davlat byudjeti, homiylik mablag‘lari, grantlar, tijorat xizmatlari va a‘zolik to‘lovlari — tahlil qilinib, ularning ulushi va samaradorligi amaliy misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Maqolada mavjud moliyaviy muammolar, jumladan, mablag‘larning yetarli emasligi, ularning samarasiz taqsimlanishi, pullik xizmatlar tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, shaffoflikning pastligi va raqamli boshqaruv tizimlarining sustligi kabi omillar alohida o‘rganilgan. Shuningdek, muallif sport muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash maqsadida muqobil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish, homiylarni jalb qilishni faollashtirish, pullik xizmatlar ko‘lamini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalarni ilgari suradi. Maqolada keltirilgan jadval va diagrammalar sport muassasalarining moliyaviy tuzilmasini amaliy jihatdan tasvirlab, taklif etilayotgan yechimlarning samaradorligini yanada aniqroq aks ettiradi. Ushbu ilmiy ish sport sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, menejerlar, iqtisodchilar hamda sport muassasalarini boshqarish bilan shug‘ullanuvchi rahbarlar uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, sport muassasalari, moliyaviy munosabatlar, byudjet mablag‘lari, homiylik, grantlar, pullik xizmatlar, moliyaviy boshqaruv, raqamlashtirish, shaffoflik, iqtisodiy samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish, sport infratuzilmasi, iqtisodiy tahlil, muqobil moliyalashtirish.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the current state of financial relations in physical education and sports institutions, the necessity of their improvement, and the importance of implementing modern management mechanisms. The study examines the main financial sources of sports institutions—state budget funds, sponsorships, grants, commercial services, and membership fees—analyzing their share and efficiency through practical examples. The article highlights existing financial issues such as insufficient funding, inefficient allocation of resources, underdeveloped paid service systems, low transparency, and the weak implementation of digital management systems. The author proposes specific recommendations aimed at ensuring the financial stability of sports institutions, including expanding alternative financing sources, increasing sponsorship engagement, developing paid services, optimizing resource utilization, and accelerating digitalization processes. The tables and diagrams presented in the article illustrate the financial structure of sports institutions in practical terms, providing a clearer representation of the effectiveness of the proposed solutions. This scientific work holds both practical and theoretical significance for specialists in the field of sports, managers, economists, and administrators involved in the management of sports institutions.

Key words: Physical education, sports institutions, financial relations, budget funds, sponsorship, grants, paid services, financial management, digitalization, transparency, economic efficiency, rational use of resources, sports infrastructure, economic analysis, alternative financing.



Аннотация. В данной статье подробно анализируется современное состояние финансовых отношений в учреждениях физической культуры и спорта, необходимость их совершенствования, а также важность внедрения современных механизмов управления. В исследовании рассматриваются основные источники финансирования спортивных учреждений — государственный бюджет, спонсорские средства, гранты, коммерческие услуги и членские взносы, — и оцениваются их доля и эффективность на основе практических примеров. В статье выделены существующие финансовые проблемы, такие как недостаточность средств, их неэффективное распределение, слабое развитие системы платных услуг, низкий уровень прозрачности и недостаточная цифровизация управленческих процессов. Автор предлагает конкретные рекомендации, направленные на обеспечение финансовой устойчивости спортивных учреждений: расширение альтернативных источников финансирования, активизацию привлечения спонсоров, развитие платных услуг, рациональное использование ресурсов и ускорение процессов цифровизации. Представленные в статье таблицы и диаграммы наглядно отражают финансовую структуру спортивных учреждений и демонстрируют эффективность предлагаемых решений. Данная научная работа имеет практическое и теоретическое значение для специалистов в области спорта, менеджеров, экономистов и руководителей, занимающихся управлением спортивных учреждений.

Ключевые слова: Физическое воспитание, спортивные учреждения, финансовые отношения, бюджетные средства, спонсорство, гранты, платные услуги, финансовое управление, цифровизация, прозрачность, экономическая эффективность, рациональное использование ресурсов, спортивная инфраструктура, экономический анализ, альтернативное финансирование.

KIRISH

Jismoniy tarbiya va sport jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, aholi salomatligini mustahkamlashda hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda muhim o'rin tutadi. Mamlakatda sport infratuzilmasini rivojlantirish, yoshlarni sportga keng jalb etish va xalqaro maydonda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash jarayonlari samarali tashkiliy va moliyaviy boshqaruvni talab qiladi. Shu bois sport muassasalarida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish nafaqat iqtisodiy zarurat, balki sohaniing barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi strategik omil sifatida qaralmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida sport muassasalari faoliyati davlat byudjeti mablag'lari bilan cheklanib qolmay, homiylik, grantlar, tijorat faoliyatidan olinadigan daromadlar va boshqa muqobil moliyalashtirish manbalariga tayanmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud moliyaviy mexanizmlar zamonaviy talablar darajasida ishlamayapti: resurslardan foydalanish samaradorligi past, pullik xizmatlar tizimi yetarli darajada rivojlanmagan, shaffoflik va raqamlashtirish jarayonlarida kamchiliklar mavjud. Bu esa sport muassasalarining iqtisodiy barqarorligi va faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport muassasalarida moliyaviy munosabatlarning mazmuni, ularning amaldagi holati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, resurslardan oqilona foydalanish va raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish orqali soha samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari sport boshqaruvi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun metodik va nazariy ahamiyatga ega bo'lib, sohani modernizatsiya qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga asos yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya va sport muassasalarida moliyaviy munosabatlarni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada kengayib bormoqda. Mazkur bo'limda ushbu yo'nalishda chop etilgan mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi hamda mavjud ilmiy yondashuvlar o'rtasidagi farqlar, o'xshashliklar va ilmiy bo'shliqlar yoritib beriladi.

Ko'plab tadqiqotchilar, jumladan, M. Porter, R. Collins, J. Slacklarning izlanishlarida sport tashkilotlarining iqtisodiy modeli, moliyaviy boshqaruv tamoyillari va resurslarni taqsimlash mexanizmlari chuqur o'rganilgan. Ularning fikricha, sport muassasalarining barqaror moliyalashtirilishi ko'p manbali moliyalashtirish, diversifikatsiya va iqtisodiy samaradorlikka asoslanadi.

Mahalliy olimlar — A. Xodjaye, B. To'rayev va boshqa tadqiqotchilar esa sport infratuzilmasini modernizatsiya qilishda davlat qo'llab-quvvatlovi va byudjet siyosatining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratadi.

Sport tashkilotlarining moliyaviy boshqaruviga doir ilmiy ishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda sport tizimining mavjud moliyalashtirish modeli aralash turga ega bo'lib, davlat mablag'lari bilan birga xususiy sektor mablag'laridan ham samarali foydalaniladi.

Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sport infratuzilmasini saqlash va rivojlantirishda homiylik, jamoatchilik asosidagi fondlar va tijorat xizmatlari muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarga ko'ra (OECD Sports Finance Report), resurslarning shaffof boshqarilishi sport tashkilotlari samaradorligining asosiy mezonini hisoblanadi.



So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda sport muassasalarida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishning moliyaviy samaradorlikka ta'siri keng muhokama qilinmoqda. R. Andersen, T. Murphy va boshqa olimlarning tadqiqotlari raqamli audit, elektron hisobot tizimlari va moliyaviy monitoringning sport tashkilotlarida moliyaviy intizomni mustahkamlashini tasdiqlaydi.

O'zbekiston olimlaridan A. Qurbonov va Sh. Sattorov sport boshqaruvida raqamlashtirishning joriy etilishi moliyaviy shaffoflikni oshirishi, korrupsiya xavfini kamaytirishi va resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda sport muassasalarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda pullik xizmatlar va tijorat faoliyati muhim omil sifatida qayd etiladi. R. Shank va J. Howardning sport marketingiga oid ishlari sport muassasalarining daromad manbalarini kengaytirish, mijoz oqimini oshirish va xizmatlar paketini diversifikatsiya qilish bo'yicha metodik yondashuvlarni taklif etadi.

Mahalliy taraqqiyot strategiyalarida ham sport xizmatlarini tijoratlashtirish, homiylik mexanizmlarini rag'batlantirish va xalqaro grantlar jalb etish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy manbalarda sport muassasalarining moliyaviy tizimi alohida jihatlar kesimida yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida integratsiyalashgan, kompleks moliyaviy boshqaruv modeli, shuningdek raqamli transformatsiya va ko'p manbali moliyalashtirishning uyg'unlashuvi yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, sport muassasalarida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirishning zamonaviy mexanizmlarini tizimli tahlil qiladi va amaliy takliflar beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekiston sharoitida jismoniy tarbiya va sport muassasalarida moliyaviy munosabatlarning amaldagi holatini o'rganish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqotning nazariy asosini sport iqtisodiyoti, moliyaviy boshqaruv va davlat-xususiy sheriklik konsepsiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotda hujjatlarni tahlil qilish metodi orqali sport muassasalarining moliyaviy hisobotlari, byudjet xarajatlari va rasmiy statistik ma'lumotlar o'rganildi. So'rovnoma va ekspert suhbatlari yordamida sport boshqaruvi mutaxassislari va sport muassasalari xodimlarining amaliy fikrlari yig'ildi. Kuzatuv metodi orqali sport muassasalarining kundalik moliyaviy faoliyati real sharoitda tahlil qilindi.

Olingan ma'lumotlar SWOT tahlil, qiyosiy tahlil va moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili yordamida baholandi. Ushbu metodlar sport muassasalarining moliyaviy barqarorligi, daromad manbalari, resurslardan foydalanish samaradorligi va mavjud muammolarni aniq aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasidagi davlat va nodavlat sport muassasalari bo'lib, tadqiqot predmeti ularning moliyaviy boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish imkoniyatlaridan iborat. Tadqiqot Toshkent shahri, Farg'ona vodiysi va boshqa hududlardagi sport muassasalari misolida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda sport muassasalarining moliyaviy boshqaruvini modernizatsiya qilish, muqobil moliyalashtirish manbalarini kengaytirish va raqamlashtirish jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport muassasalarida amalga oshirilayotgan moliyaviy siyosat, mavjud resurslar taqsimoti, pullik xizmatlar tizimi va homiylik faoliyatining holati chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida hujjatlar tahlili, so'rovnomalari, ekspert suhbatlari va moliyaviy ko'rsatkichlar monitoringi asosida olingan natijalar quyida batafsil bayon etiladi.

O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport muassasalarining moliyaviy barqarorligi, eng avvalo, ularning moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi va ushbu manbalardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksariyat sport muassasalari moliyaviy jihatdan davlat byudjeti mablag'lariga yuqori darajada qaram bo'lib kelmoqda. Bu holat muassasalarni iqtisodiy mustaqillikdan mahrum qiladi hamda yangi xizmatlar joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va raqobatbardosh faoliyat yuritish imkoniyatlarini cheklaydi. Davlat byudjeti mablag'lari, asosan, xodimlar maoshini to'lash, infratuzilmani saqlash, kommunal xizmatlar xarajatlari qoplash hamda sport tadbirlarini tashkil etishga yo'naltirilgan. Bu manba ustuvor bo'lgani bilan, uning cheklanganligi sport muassasalarining rivojlanish strategiyasini to'liq amalga oshirishga imkon bermaydi. Shu sababli xalqaro tajribada keng qo'llaniladigan ko'p manbali moliyalashtirish konsepsiyasini O'zbekiston sharoitida amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Homiylik mablag'lari sport muassasalari uchun muhim qo'shimcha moliyaviy oqim hisoblanadi. Biroq tadqiqot davomida olingan ekspert fikrlariga ko'ra, homiylarni jalb qilish bo'yicha tizimli mexanizmlar yetarli



darajada rivojlanmagan. Homiylik faoliyati ko'pincha musobaqalar va jamoaviy tadbirlar bilan chegaralangan bo'lib, infratuzilma rivoji va innovatsion loyihalar uchun homiylar yetarlicha jalb etilmaydi.

Pullik xizmatlar ulushi esa umumiy moliyalashtirish tarkibida past bo'lib, o'rtacha 10–15 % atrofida shakllanmoqda. Bu esa sport muassasalarining bozor iqtisodi sharoitida raqobatbardosh xizmatlar ko'rsatish salohiyatining yetarli emasligini ko'rsatadi. Fitnes zallari, shaxsiy murabbiylik, sport to'garaklari kabi xizmatlar bozorida talab yuqori bo'lishiga qaramay, mavjud infratuzilma va xizmat sifati bu ehtiyojni to'liq qondira olmaydi. Bu holat modernizatsiya, marketing strategiyasi va xizmatlar portfelini kengaytirish zaruratini tug'diradi.

Grantlar, donor mablag'lari va xalqaro tashkilotlar tomonidan ajratiladigan moliyalashtirish manbalari sport tizimi uchun katta ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularning ulushi hamon juda past. Buning sababi sifatida loyiha yozish kompetensiyalarining yetishmasligi, xalqaro talablar bo'yicha malakali kadrlarning kamligi hamda grantlar bo'yicha raqobatning yuqoriligi ko'rsatilishi mumkin.

1-jadval. Sport muassasalarining moliyaviy manbalari tarkibi (o'rtacha ko'rsatkichlar)¹

Moliyaviy manba turi	Ulushi (%)	Izoh
Davlat byudjeti	58 %	Asosiy manba, infratuzilma va maosh uchun sarflanadi
Homiylik mablag'lari	18 %	Ko'p hollarda loyihaviy va musobaqaviy faoliyatga yo'naltiriladi
Pullik xizmatlar	14 %	Xizmatlar Cheklangan: fitnes, suv sporti, murabbiylik
A'zolik to'lovlari	6 %	Asosan bolalar sport maktablari uchun
Grantlar va donor mablag'lari	4 %	Loyiha asosida jalb qilinadi

Quyidagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, sport muassasalarining moliyalashtirish tizimi asosan davlat byudjeti mablag'lariga tayanadi, bu esa ularning iqtisodiy mustaqilligini cheklaydi. Homiylik, pullik xizmatlar va grantlar kabi qo'shimcha manbalar mavjud bo'lsa-da, ularning ulushi past darajada bo'lib, mavjud potentsialdan yetarli darajada foydalanilmayotgani kuzatiladi. Moliyaviy manbalar tarkibining bunday nomutanosibligi sport muassasalarida diversifikatsiyani kuchaytirish, xizmatlar portfelini kengaytirish va qo'shimcha daromad manbalarini izchil rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida 47 ta sport muassasasida pullik xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mavjud xizmatlarning ko'lam tor, marketing tizimi zaif va narx siyosati bozor talabiga mos emas.

2-jadval. Pullik xizmatlarning amaldagi va potentsial daromadlari²

Xizmat turi	Hozirgi daromad (mln so'm/oy)	Potentsial daromad (mln so'm/oy)	O'sish imkoniyati (%)	Izoh
Fitnes zallari	125	210	68 %	Jihozlarni modernizatsiya qilish zarur
Suv sporti bo'limi	95	160	68 %	Talab yuqori, lekin infratuzilma cheklangan
Murabbiylik xizmatlari	70	130	85 %	Shaxsiy murabbiylik bozorida o'sish katta
Sport to'garaklari	52	95	82 %	Arzon xizmatlar segmentida talab yuqori

2-jadvalning tahlili shuni ko'rsatadiki, sport muassasalarida pullik xizmatlar orqali daromad olish imkoniyati hozirgi ko'rsatkichlarga nisbatan ancha yuqori bo'lishi mumkin. Amaldagi daromadlarning pastligi xizmatlarning cheklanganligi, infratuzilmaning eskirganligi va marketing strategiyalarining yetarli darajada qo'llanilmayotgani bilan izohlanadi. Potentsial ko'rsatkichlar esa fitnes, suv sporti, shaxsiy murabbiylik va sport to'garaklari bozorida katta talab mavjudligini ko'rsatadi. Xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash va xizmat turlarini diversifikatsiya qilish orqali daromad 60–85 foizgacha oshishi mumkin. Bu esa sport muassasalarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sport muassasalarining xarajatlar tarkibi samaradorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mablag'larning katta qismi maosh va kommunal xarajatlarga ketmoqda, bu esa infratuzilmani yangilash, yangi xizmatlar joriy etish, reklama va raqamli tizimlarga sarmoya kiritishni cheklaydi.

¹ Internet manbalari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi

² Internet manbalari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi



3-jadval. Sport muassasasining o'rtacha xarajatlar bo'yicha tahlili

Xarajat turi	Ulushi (%)	Izoh
Xodimlar maoshi	46 %	Asosan trenerlar va texnik xodimlar
Kommunal to'lovlar	22 %	Suv, elektr, isitish, basseymlar xarajati yuqori
Uskunalar ta'miri va yangilash	13 %	Ko'p muassasalarda eskirgan inventar mavjud
Raqamlashtirish xarajatlari	4 %	Minimal darajada olib borilmoqda
Reklama va marketing	3 %	Yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan
Boshqa xarajatlar	12 %	Musobaqalar, xo'jalik ishlari va boshqalar

3-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, sport muassasalarining xarajatlar tarkibida asosiy ulush xodimlar maoshi va kommunal to'lovlarga to'g'ri keladi, bu esa resurslarning katta qismi operatsion xarajatlarga sarflanayotganini anglatadi. Uskunalar ta'miri va yangilash, marketing va raqamlashtirish kabi rivojlanishga yo'naltirilgan xarajatlar ulushi esa juda past bo'lib, bu muassasalar faoliyatining modernizatsiya jarayonini cheklaydi. Xarajatlar tuzilmasidagi bunday nomutanosiblik sport muassasalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun strategik yo'nalishlarga ko'proq investitsiya ajratish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan ekspert suhbatlari quyidagi muammolarni aniqladi:

- Homiylik bilan ishlash mexanizmlari takomillashmagan
- Pullik xizmatlar bozoriga moslashuv past
- Moliyaviy shaffoflik yetarli emas
- Ko'plab jarayonlar qo'l bilan boshqariladi, raqamlashtirish sust
- Xarajatlar rejalashtirish usullari eskirgan

So'rovnomalarda ishtirok etgan 120 nafar sport xodimlarining 78 % raqamli audit tizimini joriy etishni zarur deb topgan, 64 % esa pullik xizmatlar segmenti rivojlanmaganini ta'kidladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston jismoniy tarbiya va sport muassasalarida moliyaviy munosabatlar tizimi hali to'liq samarali ishlamayapti va mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayapti. Moliyaviy manbalar tarkibining asosan davlat byudjetiga tayanishi muassasalarning iqtisodiy mustaqilligini cheklab qo'yimoqda. Homiylik faoliyati, pullik xizmatlar ko'lamini, grantlar jalbi va tijorat faoliyati kabi yo'nalishlarda sezilarli bo'shliqlar mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, pullik xizmatlar segmenti bozor talabiga mos ravishda rivojlantirilsa, sport muassasalarining daromadlari sezilarli darajada oshishi mumkin. Infratuzilmaning eskirganligi, marketingning sustligi va raqamlashtirish jarayonlarining pastligi ushbu segmentning to'liq ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Xarajatlar tarkibidagi nomutanosiblik esa modernizatsiya, innovatsion boshqaruv va strategik rivojlanish uchun yetarli resurs ajratilmayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, moliyaviy shaffoflikning pastligi, audit tizimlarining yetarlicha rivojlanmaganligi va homiylik bilan ishlashning samarasizligi muassasalarning ochiq va samarali boshqaruvini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bularning barchasi sport muassasalarida zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarurligini tasdiqlaydi.

Takliflar

1. Moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish
2. Pullik xizmatlar tizimini rivojlantirish
3. Raqamlashtirish va moliyaviy shaffoflikni oshirish
4. Infratuzilmani modernizatsiya qilish
5. Kadrlar salohiyatini oshirish
6. Grantlar va xalqaro loyihalarda ishtirokni kuchaytirish
7. Xarajatlar tarkibini optimallashtirish

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3031-son Qarori. — Toshkent, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sport infratuzilmasini rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi qarori. — Toshkent, 2020.
4. OECD Sports Finance Report. — Paris: OECD Publishing, 2021.



5. Slack, T., Parent, M. Understanding Sport Organizations: The Application of Organization Theory. — Champaign: Human Kinetics, 2006.
6. Shank, M., Lyberger, M. Sports Marketing: A Strategic Perspective. — New Jersey: Routledge, 2014.
7. Porter, M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — New York: Free Press, 1998.
8. Ходжаев, А. Спорт iqtisodiyoti va boshqaruvi asoslari. — Toshkent: O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti, 2019.
9. Qurbonov, A., Sattorov, Sh. Sport muassasalarida raqamli boshqaruvning samaradorligi. // "Sport va ijtimoiy hayot" ilmiy jurnali. — 2021. — №2. — B. 45–52.
10. Collins, R., Jackson, S. Financing Sport. — Champaign: Human Kinetics, 2007.
11. To'rayev, B. Sport iqtisodiyotida moliyaviy mexanizmlar. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020.
12. Murphy, T., Waddington, I. Sport and Public Policy. — London: Routledge, 2019.
13. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid statistik ma'lumotlar". — Toshkent, 2023.
14. Moliya vazirligi. "Sport muassasalarining moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha yillik hisobot". — Toshkent, 2022.
15. Anderson, R. Digital Management in Sport Organizations. // International Journal of Sport Economics. — 2020. — Vol. 18(3). — P. 120–132.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>